XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-may VII-13-70-10-0-K/25 Toshkent viloyati

Ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari ta’riflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6074-sonli farmoni 3-bandi va 2022-yil 2-avgustdagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Toshkent viloyati shahar va tumanlarida ichimlik va oqova suv tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish (3-bosqich)” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 341-sonli qarori 4-ilovasi 5.11-bandi hamda 2023-yil 24-oktabrdagi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 343-sonli qarori 4-bandiga asosan “Toshkent viloyati suv ta’minoti” AJ, “Chimgan-Chorbog‘ magistral suv ta’minoti” AJ, “Musaffo obi hayot magistral suv ta’minoti” AJlarning murojaatlarini o‘rganib chiqib, viloyatda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari ta’riflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning 2025-yil 2-maydagi yig‘ilish bayoni va xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi 6074-sonli farmoni, 2022-yil 2-avgustdagi 341-sonli va 2023-yil 24-oktabrdagi 343-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Toshkent viloyati suv ta’minoti” AJga 2025-yil 29-aprelda berilgan H-11-01/12-2751-sonli, “Chimgan-Chorbog‘ magistral suv ta’minoti” AJga 2025-yil 29-aprelda berilgan H-11-01/12-2740-sonli, 2025-yil 23-aprelda berilgan H-11-01/12-2612-sonli takliflari, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 30-apreldagi 01/01-10/120-sonli, 2025-yil 29-apreldagi 01/01-10/241-sonli, 2025-yil 24-apreldagi 01/01-10/235-sonli xatlari, “Musaffo obi hayot magistral suv ta’minoti” AJning taklifi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 24-apreldagi 01/01-10/235-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Toshkent viloyati suv ta’minoti” AJ, “Chimgan-Chorbog‘ magistral suv ta’minoti” AJ, “Musaffo obi hayot magistral suv ta’minoti” AJlar tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmati ta’riflari taqdim etilgan hulosalar asosida ilovaga muvofiq ma’qullansin.

4. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Sh.Nizamudinov), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G‘.Sheraliyev) iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan ta’riflari 2025-yil 1-iyuldan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

5. “Toshkent viloyati suv ta’minoti” AJ (R.Mayakubov), “Chimgan-Chorbog‘ magistral suv ta’minoti” AJ (B.Turdibayev), “Musaffo obi hayot magistral suv ta’minoti” AJ (N.Saydaliyev):

shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan ta’riflari 2025-yil 1-iyuldan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

6.Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari:

belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari uchun ta’riflarni asossiz oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan nazorat o‘rnatsinlar.

7.Mazkur qaror 2025-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov hamda viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEVA
SAYYORA
MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 26-maydagi
VII-13-70-10-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)

T/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx** (tarif) (so‘m)	**Amaldagi narx** (tarif) (so‘m) (QQS bilan)	**Taklif etilayotgan narx** (tarif) (so‘m)	**Taklif etilayotgan narx** (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
“Toshkent viloyati suv ta’minoti” AJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m3	2000	2240	2600	2912
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	9000	10080	15000	16800
3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	9000	10080	15000	16800
4	Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 *(aholi narxida)*	2000	2240	2600	2912
Oqova suv xizmati narxi					
5	Aholi uchun 1 m3	1000	1120	1300	1456
6	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	2000	2240	3000	3360
7	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	2000	2240	3000	3360

8	Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 *(aholi narxida)*	1000	1120	1300	1456
“Chimgan-Chorbog‘ magistral suv ta’minoti” AJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m3	1100	1232	1500	1680
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	1300	1456	5100	5712
3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	4600	5152	5100	5712
Oqova suv xizmati narxi					
4	Aholi uchun 1 m3	300	336	1150	1288
5	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	400	448	3400	3808
6	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	3100	3472	3400	3808
“Musaffo obi-hayot magistral suv ta’minoti” AJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m3	1500	1680	1900	2128
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	1700	1904	8200	9184
3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	5800	6496	8200	9184
4	Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	1500	1680	1900	2128
Oqova suv xizmati narxi					
5	Aholi uchun 1 m3	1000	1120	1500	1680
6	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	1150	1288	2400	2688

7	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	1900	2128	2400	2688
8	Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	1000	1120	1500	1680